

**KICHIK YOSHDAGI BOLALARGA XORIJIY TILNI SAMARALI
O'RGATISH METODIKASI**

Mustafoyeva Dilorom Norbekovna

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti o'qituvchisi

Soatmurodova Sevinch Turg'un qizi

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti talabasi

Email: ulugovafarida240@gmail.com

Annotatsiya: Bolalarga kichik yoshdan boshlab til o'rgatishning bir qancha afzalliklari mavjud. Shu sababli ham xorijiy tillarni bolalarga o'rgatishda qay usulga tayanish to'g'risida ko'plab nazariyalar ishlab chiqilgan. Ushbu maqolada esa kichik yoshdag'i va maktab yoshidagi bolalarga chet tillarini qay usulda samarali o'rgatish mumkinligi to'g'risida yozilgan.

Kalit so'zlar: kichik va maktab yoshidagi bolalar,, chet tili, ko'rgazmali qurollar , aqliy va jismoniy mashg'ulotlar, turli xil harakatlar, rol ijro etish, mavzuga doir multfilmlar, harakatli o'yinlar,zamonaviy va innovatsion usullar, onlayn platformalar, interaktiv o'yinlar .

Annotation: You can get a lot of language teaching to children from a young age. For this reason, the use of language has produced many theories about how children learn it. This article describes how to effectively teach foreign languages to small and school-aged children.

Key words: children of small and school age, foreign language, visual aids, mental and physical training, various activities, role-playing, thematic cartoons, action games, modern and innovative methods, online platforms, interactive games.

Bugungi takomillashib borayotgan zamonda ikki yoki undan ko'p tilni o'rganish shunchaki qiziqish emas, balki hozirgi paytdagi zamon talablaridan biriga aylanmoqda desak, mubolag'a bo'lmaydi. Bu holat esa har bir insonga ikkinchi tilni tanlashga bo'lgan ehtiyojni keltirib chiqarmoqda. Biron bir chet tillarini o'rganish nafaqat insonlarning o'ziga balki vatan taraqqiyoti uchun ham muhim ahamiyat kasb etadi.Tadqiqotlardan kelib chiqqan holda shuni aytish mumkinki, qo'shimcha til o'rganish inson miyasiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi va uning rivojlanishiga yordam beradi. Bundan tashqari ikki tilda muloqot qila oladigan yoki uni ma'lum bir darajada o'zlashtirgan insonlarning miya hajmi ham bitta tilda muloqot qiladigan insonlarning miya hajmidan kattaroq bo'lishi aniqlangan. Buning sababi shuki, inson yangi narsalarni o'rgangan sari uning miya hajmi ham ortib boradi.

Til o'rganish jarayoni bolalarda qancha erta boshlansa til o'rganish ko'nikmasini egallash darajasi ham shuncha ortadi. Bolalarda til o'rganishning oson kechish sabablari : ularda taqlid qilish xususiyatini kuchliligi, kattalarga qaraganda bolalar vaqtining ko'pligidan iborat. Yana bir narsani aytib o'tish joizki, 5-6 yoshli bolalar so'zlar ma'nosini tushunish orqali emas, balki uni mexanik tarzda yodlashi aniqlangan. Bundan tashqari, bolalar uchun chet tilini o'rgatishning bir qancha metod va yondashuv usullari ham mavjud. Quyida bolalar uchun qiziqarli bo'lgan 5ta usul haqida gaplashamiz:

1) multfilm tomosha qilish orqali:

Chet tilini turli xil multfilmlar orqali o'rganish samaralidir. Darhaqiqat, bolalarning til o'rganishiga yordam beruvchi maxsus multfilmlar ham bor. Bu turdag'i ko'ngilochar faoliyat natijasida bola shunchaki multfilm tomosha qilibgina qolmay, balki shu tilni ma'lum darajada tushunishni ham boshlaydi. Bundan tashqari multfilm ko'rish tinglab tushunish va talaffuz qilish ko'nikmalarini ham yaxshi rivojlantirishiga yordam berishi mumkin.

2) o'rganayotgan tildagi musiqalarni tinglash orqali:

Musiqa tinglash yaratuvchanlik, o'ziga bo'lgan ishonchni oshirishga yordam beradi, xotirani mustahkamlaydi. Bu turdag'i musiqalarni " Songs online kids" va shu kabi boshqa saytlardan ham topish mumkin , shu bilan birga , bolalar tinglayotgan qo'shiqlarini ekranda qiziqarli, rangli taglavhalar orqali o'qib yodlasalar ham bo'ladi.

3) ko'rgazmali materiallar orqali:

Bolalarda ko'rish qobiliyati kichik yoshlaridanoq yaxshi rivojlanadi . Shuning uchun til o'rgatishda chet tilini ko'pgina rasmlar , kartochkalar , plakatlardagi turli predmetlar va harakat tasvirlari bilan uyg'unlashtirib foydalanish anchagina samara beradi.

4) ijobiy muhit yaratish:

O'qish, o'rganish jarayoni bola uchun yoqimli bo'lishi va stressga sabab bo'lmasligi lozim. Zero, har bir bola o'ziga xos , shu tufayli, unga mos bo'lgan o'qitish usullarini to'g'ri tanlash muhim.

5) Takrorlash orqali:

Bilim- bu takrorlash mevasi. Chunki, o'tilgan yoki o'rganilayotgan ma'lumotlarni takrorlash bilimlarni mustahkamlaydi. Yangi so'z, ibora , birikmalarni bir necha marotaba takrorlash orqali xotirada yaxshi saqlanib qolinishiga erishish mumkin. Ayniqsa , yosh bolalarning xotirasi kattalarga nisbatan ancha kuchli, shunday ekan ,ular biror o'rganayotgan tildagi so'zlarni qancha ko'p takrorlasa shuncha tez o'sha so'zlardan muloqotda foydalanishiga yoki uni yaxshi tushunib olishiga yordam beradi. Bundan tashqari, turli xildagi, videolar va animatsiyalar orqali ham chet tillarini qiziqarli yo'l bilan o'rgatish mumkin.

Xulosa qilib aytganda, kichik yoshdagi bolalar tilni majburiyat sifatida emas balki qiziqish bilan o'rganishi kerak. Turli xil qiziqarli va bolani o'ziga torta oladigan

o‘yinlar, mashg‘ulotlar yordamida bolani qiziqtilish zarur. Chunki, bolalarga ingliz tili qiziqarli mashg‘ulotlar bilan o‘rgatilsa , bu tilni o‘rganish ularning kelajagi uchun qanchalik muhim ekanligi tushuntirilsa , keljakda o‘sha til bolaga ko’plab imkoniyatlar eshigini ochishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Ergashova, S., Yadgarova, L., Ziyodulloeva, M., Norova, F., & Yuldashova, N. (2022). The principles of using computer technologies in the formation and development of students' language skills. *Journal of Pharmaceutical Negative Results*, 13(Special Issue 6). <https://www.pnrjournal.com/index.php/home/article/view/2116>
2. Isakulova , B. K. (2024). Role of leadership style in teaching process. *GOLDEN BRAIN*, 2(1), 615–619. Retrieved from <https://researchedu.org/index.php/goldenbrain/article/view/6060>
3. Isakulova, B. K. (2023). Teaching a foreign language through didactic games to preschoolers. *GOLDEN BRAIN*, 1(11), 234–239. Retrieved from <https://researchedu.org/index.php/goldenbrain/article/view/3161>
4. Isakulova, B. K. (2023). The importance of teaching children English with early childhood with the help of game learning methods. *International Journal of Advanced Research in Education, Technology and Management*, 2(4), 352–360. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7813228>, <https://ijaretm.com/index.php/ij/article/view/339>
5. Isakulova, B. K. (2024). Didactic games as a means of learning preschool children learn English. *Zenodo*. <https://doi.org/10.5281/zenodo.10518781> <http://multidisciplinaryjournal.com/index.php/mm/article/view/104>
6. Malika Ch."Bolalarga chet tilini o‘qitishning top 5 usuli", <https://fledu.uz/uz>, 2021-yil.
7. Rozikova Z." Kichik yoshdagi bolalarga ingliz tilini o‘qitish metodlari",<https://cyberleninka.ru/>, 2022-yil.
8. Tog‘ayeva Ch. & Iskandarova N. " Maktabgacha yoshdagi bolalarda chet tilini o‘rganishda o‘yin faoliyati", <https://newjournal.org/new/issue/view/153>, 2023-yil.
9. Tuxtayevich, K. I. ., Ahmatovna, P. S. ., Turgunbayevna, M. N., Rasulovna, R. M. ., Qizi, T. F. R. ., & Qizi, Y. N. A. . (2024). Different Approaches to Enhance Critical Thinking in Digital Education. *SPAST Reports*, 1(7). <https://spast.org/ojspath/article/view/5086>
10. Usmonova U. "Maktabgacha ta‘limda bolalarni Ilk yoshida xorijiy tillarni o‘rgatishda ta‘limiy o‘yinlarning ahamiyati: baholash",<https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/presedu/index>, 2021-yil.